



**MTT TARBIYALANUVCHILARINI MAKTABDA O'QISHGA AQLIY
IRODAVIY TAYYORLIGINI ANIQLASH HAMDA NUTQINING RIVOJLASHI**

*Andijon davlat pedagogika instituti
Maktabgacha ta'lim kafedrası kata o'qituvchisi M.Xo'jabekova
Jalaquduq tumani 1-umum ta'lim maktabi,
o'zbek tili va adabiyot fani o'qituvchisi
M.Rahmatullayeva*

Doi: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15226693>

Kalit so'zlar: Akademik intizom, zamonaviy texnologiyalar ta'limda, madaniy qadriyatlar ta'limda, xalqaro talaba imkoniyatlari, ta'limning samaradorligi, ta'limga davlat yondashuvi, o'rta va oliy ta'lim, Yaponiyada ta'limning o'ziga xosligi.

Globallashtirish davrida bir qancha muammolar dunyo miqyosida ahamiyatlidir. Ulardan biri uzluksiz talimning boshlang'ich bo'g'ini bo'lgan maktabgacha ta'lim tizimi va uni tubdan islox qilishdir. Chunki, uzluksiz ta'lim birinchi va eng zarur bo'g'ini bu maktabgacha ta'lim tizimidir.

Ushbu vazifa yurtimizda ham keng qamrovda olib borilmoqda. Muhtaram yurtboshimiz Sh.M.Mirziyoyev tomonidan maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish. Sohani yangi va rivojlangan davlatlar texnologiyalari bilan boyitish va sifatini oshirish zarur.

Maktabga borish bolaning hayotida muhim bosqichlardan biridir. Bu jarayonda bolaning nafaqat bilish va o'rganish qobiliyatlari, balki uning axloqiy va irodaviy sifatleri ham muhim ahamiyat kasb etadi. Maktabda muvaffaqiyatli o'qish uchun bola ma'lum darajada aqliy rivojlanish, mustaqil fikrlash va ijtimoiy muhitga moslashish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak. Shu bilan birga, bolada irodaviy barqarorlik va axloqiy qadriyatlarning shakllanishi ham maktab hayotida muhim rol o'ynaydi. Aqliy tayyorgarlik bolaning bilim olishga tayyorligini anglatadi. Bu nafaqat o'qish, yozish va hisoblash qobiliyatlari, balki atrof-muhitni anglash, tafakkur qilish, mantiqiy fikrlash, mustaqil qaror qabul qilish kabi ko'nikmalarni ham o'z ichiga oladi. Bola ma'lumotlarni eslab qolish, savollarga javob bera olish va muammolarni hal qilish qobiliyatlariga ega bo'lishi lozim. Bundan tashqari, nutq rivoji ham katta ahamiyatga ega. Bola o'z fikrlarini aniq va to'g'ri ifodalashi, oddiy gaplarni shakllantira olishi, atrof-dagi odamlar bilan erkin muloqot qila olishi kerak. Bolani maktabga o'qishga aqliy tayyorligi.

Bolaning maktabga borishi uning hayotida yangi bosqich hisoblanadi. Bu jarayon boladan faqatgina yozish va o'qishni bilishni emas, balki tafakkur qilish, mantiqiy fikrlash, muammoni hal qilish kabi ko'nikmalarni ham talab etadi. Maktabga qabul qilinishidan oldin bola aqliy jihatdan yetuk bo'lishi, ya'ni muayyan bilish, tushunish va fikrlash qobiliyatlariga ega bo'lishi kekerak Aqliy tayyorgarlik bolaning maktabda o'qish jarayonini muvaffaqiyatli olib borishiga imkon yaratadi. Bu esa bolaning xotirasi, tafakkur qilish qobiliyati, kuzatuvchanligi, e'tibori, mustaqil fikrlash va muammolarni hal qilish qobiliyatlarini o'z ichiga oladi. Bola o'z fikrlarini aniq va ravon ifodalashi, savollarga to'g'ri javob bera olishi, atrof-muhitni tushunishi, gaplarni bog'lab ayta olishi muhimdir.

Nutq rivojlanishining yetarli darajada bo'lishi bolaning o'qituvchi va sinfdoshlari bilan erkin muloqot qilishiga yordam beradi. Bola eslab qolish qobiliyatiga ega bo'lishi, oddiy she'r va hikoyalarni yoddan ayta olishi kerak. Diqqatini jamlay olish, muayyan vazifalarni bajarish jarayonida e'tiborini yo'qotmaslik ham aqliy tayyorgarlikning muhim qisimidir. Bola sabab va natijalarni tushuna olishi, o'xshash va farqli tomonlarni ajrata bilishi, muammolarni hal qilish qobiliyatiga ega bo'lishi lozim. Bu uning matematik va boshqa fanlarni o'zlashtirishiga ijobiy ta'sir qo'yadi. Bola hayvonlar, o'simliklar, fasllar, ranglar, shakllar, vaqt tushunchalari haqida asosiy bilimlarga ega bo'lishi kerak. Bu bilimlar unga maktab dasturini o'zlashtirishda yordam beradi. Bolaning maktabga aqliy tayyorgarligini oshirish uchun ota-onalar va tarbiyachilar quyidagi usullardan foydalanishlari mumkin: Bola bilan suhbatlashish, unga kitob o'qib berish, ertaklar aytilish va u bilan hikoyalar tuzish orqali nutqini rivojlantirish mumkin. Bolaga she'r



yoki hikoya o‘qib berib, undan asosiy fikrni aytishini so‘rash, shakllarni eslab qolish va xotira o‘yinlari orqali diqqatini oshirish. bilan mantiqiy o‘yinlar o‘ynash, masalan, “nima ortiqcha” yoki “qaysi biri mos” kabi topshiriqlar berish, matematik masalalarni yechish uning fikrlash qobiliyatini ososhiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘RQning 595-sonli “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi qonuni. 16.12.2019 yil.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 802-sonli “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning DAVLAT STANDARTI” 22.12.2020 yil.
3. F.R. Qodirova, Sh.Q. Toshpo‘latova, N.M. Qayumova, M.N.A’zamova “ Maktabgacha pedagogika” T-2019 132-133 b
6. Ш.Мирзаева З.И.Курбанова “Арт-педагогические технологии коррекции страхов у детей дошкольного возраста” SCIENTIFIC PROGRESS Xusanovich, M. O. (2024, November). MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARIDA TADBIRKORLIK MADANIYATIGA O'RGATISH. In *INTERDISCIPLINE INNOVATION AND SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE* (Vol. 3, No. 25, pp. 16-18).
11. Mirzayev, O. (2023). ERTAK-TERAPIYASI VA TADBIRKORLIK MADANIYATI ELEMENTLARINING INTEGRATSIYASINI TA'MINLASHNING METODIK TIZIMI. *Инновационные исследования в современном мире: теория и практика*, 2(25), 92-94. <https://orcid.org/0009-0004-8134-3925> ORCID
12. Khusanovich, T. M. O. DEVELOPING STEAM COMPETENCIES IN OLDER PRESCHOOLERS.
13. Iminova, D., & Bozarova, M. (2024). INKLYUZIV TA'LIMNING MAQSADI VA VAZIFALARI. *Universal xalqaro ilmiy jurnal*, 1(4), 761-762.
14. Iminova, D. N. (2021). MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI VA MAKTAB O'RTASIDAGI HAMKORLIKNING AHAMIYATI. *Science and Education*, 2(1), 301-303.
10. Mominova, G. (2023). Maktabgacha talim tashkilotlari tarbiyachilarining umummadaniy kompetensiyalarini rivojlantirish texnologiyalari. *Science and innovation in the education system*, 2(2), 122-126.
11. Gulhayo, M. (2023). Technologies for development of general competences of preschool teachers. *Science and Innovation*, 2(4), 632-634.
12. Iminova D. (2024). Innovativ loyihalar vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'qish motivatsiyasini rivojlantirishning mazmuni. *Экономика и социум*, (5-2 (120)), 266-274.
13. Iminova, D. N. (2021). Maktabgacha ta'lim tashkiloti va maktab o'rtasidagi hamkorlikning ahamiyati. *Science and Education*, 2(1), 301-303.